

**UMUMTA'LIM FANLARIDAN YAKUNIY DAVLAT
ATTESTATSIYASINI TASHKIL ETISHNING JORIY MEXANIZMLARI
TAHLILI**

Yuldasheva Kamola Miraliyevna
Oriental universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lismi bitiruvchilarining matematika fanidan yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishning joriy mexanizmlari tahliliy jihatdan ko'rib chiqiladi. Jarayonni tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari ochib berilgan. Shuningdek, bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va oliv ta'lismi muassasalariga kirish imtihonlarini tashkil etishdagi mavjud muammo va kamchiliklar bo'yicha tahliliy mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yakuniy davlat attestatsiyasi, maktab bitiruvchilari, bitiruv imtihonlari

Davlat ta'lismi standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o'quv dasturining amaliyatga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilayotganligi, ta'lismi amaliyatiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o'quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdag'i ta'lismi muassasalarida keng ko'lamba amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o'rta ta'lismi maktablari o'quvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishning qonuniy asoslari quyidagi hujjatlar orqali tartibga solinadi:

- O'zbekiston Respublikaning "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni (23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son);
- "Umumiy o'rta ta'limga davlat ta'lismi standarti" (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 17- dekabrdagi 406-son buyrug'iiga 1-ilova);
- "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida nizom" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 15.03.2017-yildagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan)
- "Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom (Xalq ta'limi vazirining 2008-yil 4-martdagi 56-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan).



O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bitiruvchilari uchun umumiy o‘rta ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgandan keyin yakuniy attestatsiyadan o‘tish majburiyligi belgilab qo‘yilgan. Maktab bitiruvchilarining bilimi, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yilgan talablarning bajarilishi bo‘yicha yakuniy attestatsiya yozma, og‘zaki yoki test usulida har bir fanning amaldagi o‘quv dasturi asosida o‘quv yilining yakuni bo‘yicha o‘tkaziladi.¹

Yakuniy attestatsiya bitiruvchi sinflarda yakuniy attestatsiya o‘tkaziladigan fanlar ro‘yxati, shakli va muddatlari har o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar amaldagi vaziyatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har yili mart-aprel oylarida fanlar ro‘yxati, shakli va muddatlari tasdiqlanadi. Bu esa ushbu jarayonga yetarlicha tayyorgarlik darajasiga salbiy ta’sir etadigan bir omildir. Masalan, 2022-yilda Xalq ta’limi vazirligining 2022-yil 28-fevraldaggi 70-sonli buyrug‘iga asosan umumta’lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkaziladigan fanlar ro‘yxati tasdiqlangan, ammo ushbu xabar 30-mart kuni e’lon qilingan. 2021-yilda esa bundan ham kechroq, ya’ni 12-aprel kuni e’lon qilingan.

Odatda imtihon o‘tkaziladigan fanlar soni beshta bo‘lib, ulardan to‘rttasi Xalq ta’limi vazirligi buyrug‘i asosida qat’iy belgilab berilsa, beshinchisi qo‘srimcha ravishda o‘quvchilarining tanlovi asosida belgilangan fan bo‘yicha o‘tkaziladi. Tanlov fani sifatida “Kimyo”, “Biologiya”, “Informatika” va axborot texnologiyalari”, “Fizika” fanlaridan 1 tasi tanlanadi. Bunda variativ o‘quv reja asosida ta’lim olgan o‘quvchilar ham ushbu tanlov fanlaridan birini tanlaydi:

2020/2021-o‘quv yilida ushbu fanlar sifatida “Ona tili va adabiyot”, “Matematika”, “Chet tili”, “O‘zbek tili/rus tili” (ta’lim o‘zbek tilidagi maktablar uchun “Rus tili”, ta’lim rus va qardosh tillardagi maktablar uchun “O‘zbek tili”) hamda bitta tanlov fani;

2021/2022-o‘quv yilida esa ona tili va adabiyot, matematika, chet tili, tarix va bitta tanlov fani belgilangan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, maktablarning aksariyat qismida tanlov fani sifatida kimyo va biologiya fanlari tanlanmoqda.

Umumta’lim maktablarida ta’lim beriladigan barcha tillarda yakuniy davlat attestatsiyalari o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha namunaviy nazorat materiallari Respublika ta’lim markazi tomonidan tayyorlanib, ta’lim markazining rasmiy saytida e’lon qilinadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, har yili majburiy fanlar sifatida kiritiladigan ona tili va adabiyot, matematika fanlaridan imtihon shakli yozma ish

¹ “Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi Nizom



tarzida bo‘lib, unda bitiruvchilarning belgilangan fanlardan egallangan bilimlari yozma topshiriqqa javoblarni yozish tarzida baholanadi. 11-sinfni tugatgan o‘quvchilarning matematika fanidan egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarini aniqlash maqsadida yakuniy attestatsiya yozma ish shaklida o‘tkaziladi. Yakuniy attestatsiyaning har bir yozma ish biletida 15 ta topshiriq berilgan. Mazkur topshiriqlar 5-11-sinfda o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish uchun xizmat qiladi. Yakuniy attestatsiyaga 180 daqiqa ajratiladi. Matematika fani chuqurlashtirib o‘tiladigan sinflarda metodik birlashma qarori bilan 5-11-sinf o‘quv dasturiga mos keladigan bittadan qo‘srimcha topshiriq kiritishlari mumkin. Bunda topshiriq yechimlarini izohlab yozishlariga qo‘srimcha (60 minut) vaqt beriladi. O‘quvchilarning yozma ishlari 5 ballik baholash tizimi asosida baholanadi.

Amaldagi vaziyat tahlil qilinganda esa ushbu fan bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish jarayonida bir qator muammolar ko‘zga tashlandi:

- maktab bitiruvchisining 5-11-sinflarda o‘tilgan mavzularni bilish darajasini qamrab olish jihatdan ham berilayotgan variantlardagi savollar (15 ta savol) miqdori talab darajasida emas.
- bitiruvchilar bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarining faqat quyi kognitiv darajalarini baholashga mo‘ljallangan savollar berilgan;
- yozma ish biletidagi savollarni yechish uchun ajratilgan vaqt asossiz ravishda ko‘p berilgan, bu esa testologiya qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi;

Yuqoridagi muammolarga yechim sifatida esa quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Baholash qoidalari bo‘yicha har 30 ta savolga 60 daqiqa ajratilishi belgilangan. Keyinchalik OTM ga kirish imtihonlarida abituriyentlarning vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmasligi natijasida past natija ko‘rsatishiga sabab bo‘ladi. Solishtirish uchun: Matematika fanidan kirish imtihonlarida 30 ta yopiq test topshiriqlari uchun 60 daqiqa, Milliy sertifikatlash imtihonlarida 10 ta ochiq test (yozma ish) topshiriqlari uchun 90 daqiqa vaqt berilgan. Demak, matematikadan yakuniy attestatsiyaning yozma ish shakli uchun belgilangan vaqt miqdorini qayta ko‘rib chiqish, aprobatsiya natijalariga ko‘ra, amaliyotdan kelib chiqqan holda kamaytirish tavsiya qilinadi.
- Yakuniy yozma ish formatini kirish imtihonlari formatiga yaqinlashtirish kerak. Jumladan, bitiruvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarining faqat quyi kognitiv darajalari (Matematika fanidan tanish vaziyatlarda qisqa hisoblarni amalga oshiruvchi bir nechta predmet, hodisa, formula, qoida yoki qonuniyatlarni bilish, tushunish, zaruriy hollarda qo‘llay olish) emas, balki yuqori kognitiv



darajalari (Matematika fanidan notanish vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishi uchun bir nechta predmet, hodisa, formula, qoida yoki qonuniylatlarni tahlil qilish va umumlashtira olish) ham qamrab olinishi kerak.

- Matematik bilimlar orqali maktab bitiruvchilarining standart vaziyatlarda klassifikatsiya, analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullari yordamida strategik, refleksiv va evristik tafakkur yurita oladi, o‘rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni masala yechishda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.²

Yuqoridagi kamchiliklar ta’lim sifatini ishonchli baholashga, yakuniy attestatsiyani to‘g‘ri tashkillashtirishga salbiy ta’sir qiladigan omillar hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy attestatsiyasini tashkil etishda joriy holatni tahliliy va tanqidiy jihatdan ko‘rib chiqish va xorij tajribasi asosida samarali mexanizmlarni taklif etiish o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi” 2-bob, 5-bandi
2. “Umumiyo o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi Nizom (Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi 56-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan).
3. “Umumiyo o‘rta ta’lim to‘g‘risida nizom” (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 15.03.2017-yildagi 140-sun qarori bilan tasdiqlangan)
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-apreldagi 154-sonli qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-maydagi PQ – 4708-sun qarori
6. O‘zbekiston Respublikaning “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni (23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-sun);
7. “Umumiyo o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti” (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 17- dekabrdagi 406-sun buyrug‘iga 1-ilova);
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi respublika ta’lim markazi Umumiyo o‘rta ta’lim muassasalarining 9-, 11-sinf o‘quvchilari yakuniy nazorat imtihonini o‘tkazish bo‘yicha metodik tavsiya va materiallar. 2022.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-maydagi PQ – 4708-sun qarori

